O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Farg‘ona davlat texnika universiteti
rektori R.R.Tojiyev
_____
“ 3 ” 11 2026-yil

05.06.04 – TIKUVCHILIK BUYUMLARI TEXNOLOGIYASI VA KOSTYUM DIZAYNI

ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura(PhD) va mustaqil izlanuvchilikga qabul qilish bo‘yicha

DASTUR VA BAHOLASH MEZONLARI

Farg‘ona - 2026

05.06.04 – “Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’limga o‘qishga kirish sinovlarining dasturi va baholash mezonlari. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2026. – 12 b.

Tuzuvchilar:

G.N.Valiyev	Farg‘ona davlat texnika universiteti, t.f.d., professor.
J.I.Oripov	Farg‘ona davlat texnika universiteti, t.f.d., dotsent.
I.N.Obidova	Farg‘ona davlat texnika universiteti, t.f.f.d., (PhD).
D.B.Yuldasheva	Farg‘ona davlat texnika universiteti, t.f.f.d., (PhD).
D.U.Yusupova	Farg‘ona davlat texnika universiteti, t.f.f.d., (PhD).

Dastur va baholash mezonlari “Yengil sanoat muhandisligi” kafedrasining 2026 yil 2-oktyabrdagi 2-son yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.

Farg‘ona davlat texnika universiteti Ilmiy-texnik Kengashining 2026-yil “____” _____da bo‘lib o‘tgan majlisida ko‘rib chiqilgan va maqullangan.

Ushbu malakaviy imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4851-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22- maydagi 304-sonli “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-yanvardagi 220/2-sonli “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaroriga muvofiq tayyorlangan.

Taqrizchilar:

Axunbabayev O.A	-	O‘zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot instituti direktori, t.f.d., prof.
Maqsudov N.B	-	Namangan davlat texnika universiteti t.f.d.DSc, dotsent.
Aminova N.T	-	“NARIMTEX” MChJ direktori

I. SO‘Z BOSHI

Ushbu dastur Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son Farmoniga, «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Vazirlar Mahkamasining qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 22 may, 304-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimiga majburiy talablarni belgilaydi.

Ilmiy texnika taraqqiyotining jadallashishi va ishlab chiqarish samaradorligini tobora ortishi muayyan ishlab chiqarish vazifalarini yechish imkoniyatiga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy xodimlar tayyorlanishini talab etmoqda. Shu munosabat bilan oliy texnikaviy ta’lim muassasalari oldida zamonaviy sohalarda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadal o‘sishi va ishlab chiqarish samaradorligining tez sur’atlarda ortishi talablariga javob beradigan, muayyan ishlab chiqarish vazifalarini yechish imkoniyatiga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy xodimlar tayyorlashdek muhim vazifa turadi.

Farg‘ona davlat texnika universitetida 05.06.04 – “Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni” ixtisosligi bo‘yicha doktarantura (DSc) tayanch doktorantura (PhD) hamda mustaqil izlanuvchilikka kirish sinovida talabgorlarning quyidagi fanlardan ijodiy qobiliyatlarini baholash belgilangan:

1. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash
2. Tikuv buyumlari texnologiyasi
3. Kostyum kreativ grafikasi va kompozitsiyasi

Ayrim savollar umumkasbiy fanlardan olingan va tayanch doktoranturaga kirish jarayonida fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar darajasini aniqlashga yordam beradi

05.06.04 – “Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni” ixtisosligi bo‘yicha doktarantura (DSc), tayanch doktorantura (PhD) hamda mustaqil izlanuvchilikka kirish sinovida o‘tkaziladigan yozma ish-og‘zaki sinov imtihonida talabgorlarning bilimini baholash mezonlari

05.06.04 – “Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni” ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni tanlangan ixtisoslik bo‘yicha talabgorlarning nazariy bilimlari, ilmiy-tahliliy fikrlash qobiliyati hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma-og‘zaki shaklda o‘tkaziladi.

Talabgorlarning har bir savolga javobi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Bayon qilingan materialning to‘liqligi;
2. Javobning imtihon savoliga mantiqan mosligi;

3. Javoblarning aniqligi va mantiqiy yaxlitligi;

4. Ilmiy-uslubiy tilda savodli bayon qilinishi, aniq ta’rif va atamalardan to‘g‘ri foydalanilishi;

5. Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni amaliyot bilan bog‘lay olish, ilmiy-amaliy ahamiyatini tushunish qobiliyati;

6. Hukumat qarorlari, tegishli davlat dasturlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tushunish darajasi;

7. Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va normativ-huquqiy asoslarni anglash darajasi;

8. O‘z fikrini aniq va asosli bayon qila olish, mustaqil fikrlash hamda nazariya va amaliyotga tanqidiy yondasha olish qobiliyati.

Baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Talabgorlar imtihon biletida berilgan 4 ta savol bo‘yicha javoblarni avval yozma tarzda bayon etadilar, so‘ng ularning mazmunini imtihon komissiyasi huzurida og‘zaki himoya qiladilar. Har bir savol uchun 25 ballgacha baho qo‘yiladi (jami 100 ball).

Yozma va og‘zaki qismlar alohida imtihon sifatida emas, yagona yozma-og‘zaki imtihon natijasi sifatida baholanadi. Yozma javoblar yuqori saviyada bo‘lgan taqdirda ham, agar og‘zaki izoh yetarli bo‘lmasa yoki yozma javobni tasdiqlamasa, maksimal ball qo‘yilmaydi.

Yozma va og‘zaki javoblar o‘zaro uyg‘un bo‘lishi lozim; biri ikkinchisiga zid bo‘lgan holatlarda ball kamaytiriladi.

Baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

86-100 ball	qo‘yilgan savollarga nazariy jihatdan to‘g‘ri va ijodiy yondashgan holda ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javoblar keltirilgan hamda mustaqil fikr-mulohazalar va xulosalar bilan boyitilgan bo‘lsa;
71-85 ball	avollarga to‘liq javob berishga harakat qilingan, nazariy jihatdan to‘g‘ri va ijodiy yondashuv mavjud, biroq ayrim tushunchalar va ta’sir etuvchi omillarni bayon etishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan yoki fikr va yechimlar to‘liq asoslanmagan bo‘lsa;
56-70 ball	savollar mohiyati yuzaki yoki qisman ochib berilgan, tegishli tushunchalar yetarli darajada yoritilmagan, fikr-mulohazalar va xulosalar to‘liq bayon etilmagan bo‘lsa;
0-55 ball	savollarga javob berilmagan, noto‘g‘ri talqin qilingan yoki masalaga izoh berilmagan hollarda

Imtihon komissiyasi zaruratga ko‘ra talabgorga tanlangan ixtisoslik, tadqiqot yo‘nalishi, mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari va ilmiy natijalarini qo‘llash imkoniyatlari yuzasidan qo‘shimcha savollar berishi mumkin.

05.06.04 – “Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni” ixtisosligi ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutining stajyor-tadqiqotchilik

va mustaqil izlanuvchi shakllariga o‘qishga qabul qilish uchun o‘tkaziladigan suhbatda talabgorlarning ilmiy salohiyatini baholash mezonlari

05.06.04 – “Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni” ixtisosligi ixtisosligi bo‘yicha stajyor-tadqiqotchilik va mustaqil izlanuvchilikka o‘qishga qabul qilish uchun o‘tkaziladigan suhbat tanlangan ixtisoslik bo‘yicha talabgorlarning nazariy tayyorgarligi, ilmiy-tahliliy fikrlashi, tadqiqot olib borish qobiliyati hamda kasbiy moslik darajasini aniqlash va baholash maqsadida o‘tkaziladi.

Baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Suhbat ixtisoslik bo‘yicha 4 ta savoldan iborat bilet asosida o‘tkaziladi. Har bir savol bo‘yicha 0 dan 25 ballgacha, jami 100 ball qo‘yiladi. Talabgor bilet savollari bilan tanishib, zarur hollarda o‘zi uchun qisqa yozma qaydlar tayyorlashi mumkin, biroq bu qaydlar baholash obyekti hisoblanmaydi. Baholash faqat talabgorning og‘zaki javoblari va suhbat jarayonidagi fikrlari asosida amalga oshiriladi. Imtihon komissiyasi javoblarni aniqlashtirish va chuqurlashtirish maqsadida qo‘shimcha savollar berishi mumkin.

Talabgorlarning har bir og‘zaki javoblari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Javoblarning to‘liqligi va mazmunan asoslanganligi;
2. Savollarga javoblarning mantiqan izchil va aniqlik bilan bayon etilishi;
3. Ilmiy-uslubiy tilda fikrni to‘g‘ri, ravon va aniq ifoda eta olish;
4. Tanlangan ixtisoslik bo‘yicha nazariy bilimlar chuqurligi va tizimliligi;
5. Tadqiqot metodologiyasi va zamonaviy ilmiy yondashuvlar bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lish;
6. Fan va texnika yutuqlarini hamda dolzarb ilmiy masalalarni amaliyot bilan bog‘lay olish;
7. Mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil yuritish va asosli xulosalar bera olish;
8. Komissiya savollariga tezkor, mantiqli va ishonchli javob qaytara olish.

Baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

86-100 ball	javoblar yuqoridagi mezonlarga to‘liq javob bergan, chuqur, ilmiy asoslangan va tahliliy darajasi yuqori bo‘lgan hollarda;
71-85 ball	javoblar asosan to‘liq va to‘g‘ri bo‘lib, ayrim kamchilik va noaniqliklarga yo‘l qo‘yilgan hollarda;
56-70 ball	javoblar qisman izchil bo‘lib, ayrim savollar yuzaki ochilgan yoki ilmiy asos va tahlil yetarli bo‘lmagan hollarda;
0-55 ball	javoblar yuzaki bo‘lgan, savollarga mos emas yoki ilmiy saviya talab darajasiga javob bermagan hollarda.

Mazkur suhbat mezonlari stajyor-tadqiqotchilik va mustaqil izlanuvchilik shakllariga o‘qishga qabul qilishda qo‘llaniladi. Imtihon komissiyasi zaruratga ko‘ra talabgorga tanlangan ixtisoslik, tadqiqot yo‘nalishi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalar, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari hamda kutilayotgan ilmiy natijalar yuzasidan qo‘shimcha savollar berishi mumkin.

05.06.04 **– “Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni” ixtisosligi bo‘yicha doktorantura (DSc), tayanch doktorantura (PhD) hamda mustaqil izlanuvchilikka kirish sinovidagi namunaviy savollar ro‘yxati**

“Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanidan

1. Tikuv buyumlarini ishlab chiqarishga texnik tayyorlash va unda tajriba, tayyorlov hamda tikuv sexlari vazifalari.
2. Gazlamani bichishga tayyorlash, bichish usullari va qo’llaniladigan asbob-uskunalar.
3. Tikuv buyumlarini biriktirish usullari va qo’llaniladigan asbob-uskunalar to’g’risida ma’lumotlar keltiring.
4. Tikuv buyumlarini ip va yelim bilan biriktirish usullari va qo’llaniladigan asbobuskunalarini turlari.
5. Tikuv buyumlari detalarini payvandlab biriktirish usullari va bosqichlarini keng yoriting (chizmalar asosida).
6. Tikuv buyumlariga namlab-isitib ishlov berish jarayonlarini to’liq yoriting.
6. Kiyimlarni mayda detallari cho’ntak, yoqa, manjet, adiplarga dastlabki ishlov berish jarayonlarini texnologik sxemalar asosida keng yoritib bering.
7. Ustki kiyimda cho’ntak turlari va ularga ishlov berish usullarini texnologik sxemalar asosida yoriting.
8. Kiyimlarda qo’llaniladigan chokdagi cho’ntak turlarini tikishni texnologik sxemalar asosida tushuntiring.
9. Qoplama cho’ntak tikish texnologik ketma-ketligini ishlab chiqish va ‘ar bir jarayon mazmunini yoritish (chizmalar asosida).
10. Shim yon cho’ntagini tikish va texnologik tartibini tuzish (chizmalar asosida tushuntiring).
11. Erkaklar pidjagi ichki cho’ntagini tikish texnologik ketma-ketligi tuzish va tikish jarayonini texnologik sxemalar asosida tushuntiring.
12. Erkaklar pidjagi bortiga ishlov berish texnologik tartibini texnologik sxemalar asosida tushuntiring.
13. Ko’tarma va qaytarmali yoqa tikish, yoqa o’miziga o’tqazish bosqichlari chizmalar asosida atroflicha yoriting.
14. Ikki chokli (astarli) yeng tikish va yeng o’miziga biriktirish jarayonlarini chizmalar asosida keng yoriting.
15. Ayollar plashi astariga ishlov berish va avrasiga ulash ketma-ketligini tuzing va texnologik sxemalar asosida tushuntiring.
16. Erkaklar shimi gulfik qismiga texnologik ishlov berish ketma-ketligini tuzing va texnologik sxemalar asosida tushuntiring.
17. Ayollar yubkasi belboьiga texnologik ishlov berishni chizmalar asosida tushuntiring va atroflicha yoriting.

18. Erkaklar ko’ylagi taqilmasiga texnologik ishlov berish ketma-ketligini tuzing va texnologik sxemalar asosida tushuntiring.
19. O’g’il bolalar trikotaj fudbolkasini tayyorlash texnologik ketma-ketligini tuzish, texnologik sxemasini chizish
20. Bosma studiya va katta hajmdagi raqamli mato printer ta’rifini keltiring.
21. Raqamli kashta tikish moslamalari ishlashini tushuntiring.
22. Buyum sifatini tekshirish va nuqsonini aniqlovchi maxsus dastgohlar to’g’risida ma’lumot keltiring.
23. Lazerli to‘sar jihozidan foydalanish. Modellarni ishlab chiqarishga tushirishni takomillashtirish yo‘llari to’g’risida ma’lumotlar bering.
24. Bichish sexlarida zamonaviy yangi texnologiyalardan foydalanib, buyum detallarini bichish. Detal qirqimlariga ishlov berishda qo‘llaniladigan asbob-uskunalar.
25. Termoplastik materiallarni payvandlash usullari va ularni qo‘llash jarayoni, qo‘llaniladigan asbob uskunalar.
26. Maxsulot saqlash omborlaridagi zamonaviy jihozlar.
27. Yashirin baxyaqator hosil qilib tikuvchi mashinalar.
28. Puxtalash yarim avtomatlari ularga ta’rif bering.
29. Tugma tikish va qadash yarim avtomatlari turlari.
30. Dazmollash presslariga ta’rif bering.

“Kostyum kreativ grafikasi va kompozitsiyasi” fanidan

1. Axramatik ranglardan foydalanib klassik uslubdagi ayollar ko‘ylagini ishlash.
2. Rangli bo‘yoq yordamida faktura yaratib ayollar uchun oqshom libosda qo‘llash.
3. Tabiatdagi o‘simliklar yoki daraxt fakturasidan stilizatsiya tayyorlash va libosda qo’llash.
4. Sketchbookda ishlash tartibini buzmagan holda libos loyihalash.
5. Rangli bo’yoq yordamida faktura yaratib bolalar kiyimlarida qo’llash.
6. Ijodiy manbaani teksturasidan foydalanib ayollar uchun kiyim kolleksiyasini yaratish.
7. Kantras ranglardan foydalanib klassik uslubdagi erkaklar uchun libos loyihalash.
8. Ijodiy manbaa tanlagan va asoslagan holda ramantik uslubga hos libos loyihalash.
9. Nyuans ranglardan foydalanib klassik uslubdagi erkaklar uchun libos loyihalash.
10. Trikotaj maxsulotlari geometrik fakturalarini dizayn loyihasini ishlash.
11. Dizayn loyixa bo’yicha Skechbook-albomini rasmiylashtirish.
12. Mashxur dizaynerlar eskiz galereyasini o’rganib, ayollar ustki kiyimlari eskiz loyihasini ishlab chiqish.
13. Liboslar va gazlamalarni badiiy-dekorativ bezash usullari.
14. Arxitektura (memorchilik)-ijod manbasi sifatida.
15. Sanoat ishlab chiqarish uchun mo’ljallangan libos modellari kolleksiy loyihasini yaratish.
16. Modalar siklikligi va innovatsiyasi o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni dizayn

nazariyasi nuqtai nazaridan izohlang.
17. Dizayn loyihasida barqaror rivojlanish g‘oyasi qanday talqin qilinadi va u material tanlash hamda ishlab chiqarish texnologiyalariga ta’siri.
18. Postmodernizm estetikasining zamonaviy kiyim dizaynidagi ifodasi.
19. Kostyum dizaynida milliy meros va global tendensiyalar uyg‘unligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslari.
20. Kostyum dizayni tahlilida ergonomika, antropometriya va psixologik idrok o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.
21. Kostyumda vizual metafora yaratish metodlari va ularning badiiy ta’sir kuchini baholash mezonlari.
22. Kostyum loyihasida 3D texnologiyalar va raqamli modellashtirishning o‘rni va ustunliklari.
23. Kostyum dizaynini ishlab chiqishda madaniy kod va vizual identifikatsiya tushunchalari.
24. Kiyim dizaynida tekstura va material kontrasti orqali g‘oyaviy ifoda yaratish yo‘llari.
25. Dizayn loyihasini baholashda badiiy, texnologik va ergonomik mezonlarni qo‘llash.
26. “Minimalizm” yo‘nalishining zamonaviy kiyim dizaynidagi ilmiy-estetik mohiyati.
27. Metaverse (metakoinot) muhitida kiyim dizayni loyihalashning yangi tamoyillari.
28. Kostyum dizayni morfologiyasi tushunchasini izohlang. Shakl va funksiyaning o‘zaro munosabatini tahlili.
29. Milliy va global modalar muvozanati dizayn loyihasining ilmiy yo‘nalishlariga ta’siri.
Kiyimda ergonomik mukammallikni ta’minlovchi dizayn elementlarini ilmiy jihatlari.
30. Kostyum dizaynida rang psixologiyasi va inson hissiyati o‘rtasidagi bog‘liqlik.

“Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” fanidan

1. Yeng qiyamasining kirishtirish haqi chizmaning uchastkalari bo‘yicha qanday taqsimlanadi va yeng o‘mizi hamda qiyamasi bo‘yicha nazorat belgilari (kertiklar) qanday joylashtiriladi?
2. Yengning tipaviy konstruksiyasiga qanday talablar qo‘yiladi?
3. Yeng konstruksiyasini tuzish uchun qanday ma’lumotlar kerak?
4. Yeng qanday ketma-ketlikda quriladi?
5. Yoqalar qanday tasniflanadi?
6. Yoqaning parametrlari o‘zaro qanday bog‘langan?
7. Yassi yoqa qanday quriladi?
8. Pidjakbop yoqa qanday prinsipda quriladi?
9. Tik yoqaning konstruktiv xususiyatlari qanday?
10. Yopiq yoqalar qanday quriladi?
11. Shalsimon yoqaning xususiyatlari qanday?

12. Sorochkabop yoqa qanday quriladi?
13. Klassik uslubdagi shimning qanday konstruktiv xususiyatlarini bilasiz?
14. Shimning balansi qanday aniqlanadi?
15. Katta yoshli qomatlarning qanday mutanosiblik tiplarini bilasiz?
16. Kiyim detallarining yoyilmasi qanday usullar yordamida olinadi?
17. Tikuv buyumning konstruksiyasi deb nimaga aytiladi?
18. Ishlab chiqarish sharoitida buyum konstruksiyasiga qanday talablar qo‘yiladi?
19. Detal uchastkalarini aniqlaydigan hisoblash formulalarining qaysinisi ikkinchi xilga kiradi?
20. Chizma qurishda bazis to‘rining qaysi chiziqlari dastlabki hisoblanadi?
21. Old bo‘lak yoqa o‘mizining yuqori nuqtasi qanday aniqlanadi?
22. Old bo‘lakda vitochkalar qanday joylanishi mumkin?
23. Bazis to‘ri qanday tuzilgan?
24. Birinchi tip formulalari yordamida bazis to‘rining qanday o‘lchamlari aniqlanadi?
25. Yenglarning qanday bichimlarini bilasiz?
26. Ort bo‘lak o‘rta chizig'ining konstruksiyasiga qanday omillar ta’sir etadi?
27. Qanday yeng klassik shakldagi o‘tqazma yeng hisoblanadi?
28. Ort bo‘lak yelka nuqtasining holati qanday aniqlanadi?
29. Reglan yengning xususiyatlari qanday?
30. Chizmada yoqa o‘mizining tuzilishiga kiyimning turi qanday ta’sir ко ‘rsatadi?

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minglash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza 2016 yil 7 dekabr. – t.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 48
3. Mirziyoyev Sh.M. buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Rasulova.M.K. "Tikuv buyumlari texnologiyasi", Darslik T.-2018y. 203 b
5. Madjidova Sh.G, Ulkanboyeva. G.D. Tikuv-trikotaj buyumlari texnologiyasi. Adabiyot uchqunlari. Toshkent, 2020 y.200 b
6. Devletshayeva.Z. Tikuv buyumlarni tayyorlash texnologiyasi o‘quv qo‘llanma 687.1(075.8).O-32 Toshkent 2017, Sano-standart, 140 b.
7. Nabidjanova N.N, Rizametova M.A **“**Tikuv buyumlari texnologiyasi**.”** O‘quv qo‘llanma Namangan-2019, 231b
8. Niyazaliyeva M.M. Tikuvchilikda innavatsion texnologiyalar o‘quv qo‘llanma, Toshkent 2021 Lesson Press
9. Garment Manufacturing Technology, Edited by Rajkishore Nayak and Rajiv Padhe. 2021 Elsevier Ltd. https://shop.elsevier.com/books/garment-manufacturing-technology/nayak/978-1-78242-232-7
10. Тереза Жилевска: “Я строю выкройку. Брюки. Конструирование и моделирование любых фасонов.: Издательство: Эксмо, 2021 г.
11. https://www.labirint.ru/books/831227/.
12. Technology of Clothing Manufacture, Four Edition. Revised by David J.Tyler. Blackwell Publishing. 2021.
13. https://www.pokroyka.ru/obrabotka-izdelij/obrabotka-bortovizdeliya-podbortami

Internet saytlari

1. http://www.ziyonet.uz - Ta’lim portali
2. http://titli.uz - Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti sayti.
3. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali
4. www.uzpaxta.uz.